

BADIIY MATNDA ANTETSEDENTLI ILOVALI ELEMENTLARNING IFODALANISHI

*M. Begmatov*¹

Annotatsiya:

Ushbu maqola badiiy matnda ilovali elementlarning ifodalanishi va ularning antetsedentlar bilan aloqadorligi haqida batafsil tahlil qiladi. Matnning turli qismlari orasidagi grammatik va stilistik aloqalarni o'rganishga e'tibor qaratiladi. Maqola, ilovali elementlarning sintaktik pozitsiyalari va ularning ifodaviy funksiyalari xususida chuqur tushunchalar beradi va shu bilan birga, ushbu elementlarning matnda qanday qo'llanilishi mumkinligini namoyish etadi.

Kalit so'zlar: ilovali elementlar, antetsedent, badiiy matn, sintaktik pozitsiyalar, stilistik funksiyalar, grammatik aloqalar

doi: <https://doi.org/10.2024/pq4ggj21>

Ma'lumki, matn doirasida turli xil tasviriy vositalarni izohlab berishda leksik va grammatik vositalar muhim rol o'ynaydi. Ilova konstruksiya tarkibidagi ilovali elementlar masalasi faqat grammatika bilan emas, balki uslub, ohang, tinish belgilari masalalari bilan ham bog'lanadi. Ilovali elementlar o'zining grammatik belgisi mazmuni va vazifasiga ko'ra, sintaksisning maxsus sohasi – murakkab gap sintaksisining o'rganish obyekti hisoblanadi. Ilova hodisasi uslub vositasi sifatida faqat badiiy matnlar doirasidagina emas, balki ilmiy matnlar doirasida ham keng yoyilgan. Demak, ilovali elementlar ham turli-tuman obrazli so'z va so'z birikmalari shakllarida ifodalanib kelib, matnlar doirasida o'ziga xos stilistik funksiyalarni bajaradi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda ilovali elementlarning ajratilgan komponentlari ham o'zlari bevosita aloqada bo'lgan antetsedentlarga nisbatan yonma-yon turadi. Ularga xos bo'lgan xususiyat – bu ularning ana shu antetsedentlarga nisbatan o'rta holatda, ya'ni pozitsiyalarda kelishidir. Matnlar ustida olib borgan kuzatishlarimiz ba'zi ilovali elementlarning ma'lum bo'lakka nisbatan o'rta holatda turishi ham mumkinligini isbotlamoqda, bunda ularning ma'no xususiyatlari ochib beriladi ular to'ldirilib, aniqlashtirilib keladi:

1. Corinna hatte ihn, den Bruder, unterrichten wollen (Hörig Ursula, 30).
2. Einer von ihnen, ein Foxterrier, nannte sie Smiles (Hörig Ursula, 30).
3. Ihr Ehemann, Prinz John, sah sie nicht sehr oft (Bredel Willi, 43).
4. Er erwartete am Sonntag Herta Fürth. Sein Mädchen (Bredel Willi, 264).

Nemis yozuvchilarining badiiy asarlaridan keltirilgan ushbu misollarda namoyish etilgan to'ldiruvchili ilovali komponentlar ham o'zlari bevosita aloqada bo'lgan antetsedentlarga nisbatan yonma-yon turibdi. Ularga xos bo'lgan xususiyat – bu ularning ana shu antetsedentlarga nisbatan o'rta holatda, ya'ni pozitsiyalarda kelishidir. Bizning bu yerda ma'lum bo'lakka nisbatan antetsedent tushunchasini qo'llanishimizga sabab, ushbu terminologik

¹ *M. Begmatov, SamDCHTI professori*

tushuncha Yu.S. Moraru tomonidan ilovali elementlarga nisbatan birinchi marta qo'llanilgan. U ispan tili materiallari asosida ilova hodisaning ajralmas qismi hisoblanmish ilovali elementlarga nisbatan ana shu antetsedent atamasini qo'llab, uning yordamida hosil bo'lgan ilovali elementlarga antetsedentli ilovali elementlar yoki ushbu tushunchaning ma'noviy talabi bilan yuzaga kelgan ilovali unsurlar deb atagan [3; 58–63-b.].

Shuning uchun, biz ham antetsedent tushunchasini Yu.S. Moraruning ilmiy ishlaridan olib, bu yerda ma'lum komponentga nisbatan qo'lladik, chunki ilova hodisasi bilan ajratish hodisasi o'rtasida ko'p jihatdan o'xshashliklar mavjud. Ularga xos bo'lgan o'xshashliklar ilovali elementlar bilan ajratilgan bo'laklar tomonidan bajarilayotgan funksiyalarda o'z ifodasini topadi. Masalan, ajratilgan gap bo'lagi ma'lum komponentga nisbatan «qo'shimcha» ma'no anglatib kelsa, ilovali element esa asosiy ifodaga nisbatan xuddi shunday funksiyani bajaradi yoki ilovali bo'lak ma'lum bo'lakning mazmunini to'ldirib, konkretlashtirib, izohlab kelsa, ajratilgan bo'lak esa asosiy ifodaning mazmunini ana shunday belgilar orqali ifodalaydi; ajratilgan gap bo'lagi stilistik hodisa bo'lsa, ilovali elementlar ham stilistik hodisadir, chunki ularning yoyilish darajasi u yoki bu yozuvchining individual uslubi bilan belgilandi. Bu ikkala hodisa B.T. Tursunovning ta'kidlashicha «bir-biridan ikki xil usul bilan farq qiladi: birinchidan, intonatsiyasi bilan; ikkinchidan, o'zlari bevosita bog'liq bo'lgan komponentlarda tutgan pozitsiyalari bilan. Ilovali elementlarning intonatsiyasi uzilish xarakteriga ega bo'lib, u yozma nutqda asosiy ifodadan «nuqta» tinish belgisi yordamida ajraladi. Ilovali elementlarning intonatsiyasi ajratilish xarakteriga ega, ya'ni u ma'lum bo'lakdan yozma nutqda vergul, tire yoki ikki nuqta bilan ajraladi.

Ilova konsruksiyadagi ilovali elementlar asosiy ifodaga nisbatan faqat postpozitsiya holatida turadi, ajratilgan bo'lak esa ma'lum bo'lakka nisbatan turli xil pozitsiyalarda turishi mumkin» [4; 57–59-b.]. Demak, bu ikkala hodisaning bir-biriga o'xshashlik tomonlari bo'lsada, bir-biridan farq qiluvchi tomonlari ham mavjud ekan. Shuning uchun ham bu hodisalarining har biri u yoki bu ilmiy-ta'dqiqot ishlarining tekshirish obyekti sifatida o'rganilmoqda [1, 2].

Ana shu fikrlarni inobatga olgan holda, biz yuqorida tahlil qilinayotgan misollarga nisbatan qo'llanilayotgan «antetsedent» terminologik tushunchasining lingvistik mohiyatini izohlab berish maqsadida, qisqa holda, ularning ba'zi bir o'xshashlik alomatlariga murojaat qildik va ularning o'xshashliklarini ko'rsatishga harakat qildik. Demak, misollarda keltirilgan ilovali elementlar ham ma'lum elementlarning, ya'ni antetsedentlarning ma'noviy talablari bilan hosil bo'lgan. O'z-o'zidan ma'lumki, faqatgina ilovali elementlarning mazmuni yordamida butun bir gapning mazmuni konkretlashtirilishi mumkin xolos. Gap tarkibida mavjud bo'lgan ana shunday noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida har xil aniqlashtiruvchi figuralar kiritiladi, ulardan biri - bu ilovali elementlarning o'zginasidir. Ushbu misollar tarkibida ma'lum bo'laklar bilan ilovali elementlar o'rtasidagi sintaktik aloqa fe'l-kesimning umumiyli va boshqaruvchanligi bilan amalga oshadi. Agarda ma'lum gap bo'laklarlari oldida bog'lovchilar kelsa, u holda, bir tomondan, ma'lum bo'laklar bilan ilovali elementlar orasidagi sintaktik aloqa vositasining doirasi kengaysa, ikkinchi tomondan, ilovali elementlar tomonidan ma'lum bo'lakka nisbatan bildirayotgan qo'shimcha ma'noning xarakteri o'zgaradi.

- [1]. Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. Л., «Наука», 1979. –366 с.
- [2]. Axmedova B. M. *Ilova qurilmaning ba'zi bir strukturaviy xususiyatlari* (L. Feyxtvanger asarlari asosida). –Samarkand: Sam DU. 1997. –B. 53.
- [3]. Begmatov M.B. *Ilovali elementlarning matnda ifodalanishi. Tarjima, axborot, muloqot-siyosiy va ijtimoiy ko'prik. Xalqaro ilmiy amaliy anjuman materiallari.* –Samarqand. 2018. –403-404 b.
- [4]. Морару Ю. С. Присоединительные конструкции семантического исследования с антецедентом глагольного типа. Сб.: Прагматико-функциональное исследование языков. –Кишинев: «Штиинца», 1987, –С. 58-63.
- [5]. Tursunov B.T. *Обособление и присоединение. Ilmiy-tadqiqotlar axborotnomasi. Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal.* –Samarqand: SamDU, 2005, № 2. –B. 57-59.
- [6]. Шафиро М.Е. К вопросу о присоединениях. Вопросы синтаксиса и стилистики русского литературного языка. Куйбышев, 1963. с.59-77
- [7]. Bredel Willi. *Der erste Schuß am Tage der Schlacht.* 3. Auflage 1981. –319 S.
- [8]. Hörig Ursula. *Palermo und die himmelblauen Höschen.* VEB Hinstroff Verlag Rostock, 1972. –186 S.